

TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARDAN TADBIRKORLIKDA FOYDALANISH**Umarova Amina Norqul qizi****“Texnologik ta’lim” yo’nalishi 3-kurs talabasi****D.I.Kamalova****Ilmiy rahbar: t.f.d. (DSc), prof.****Navoiy davlat pedagogika insitituti****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14195600>**

Bizga ma’lumki, texnologiya fani maktabgacha ta’limdanoq bolalarni aqliy rivojlantirish hamda ularning qo’l harakatlari metodikasi, fikrlashlarini teranlashtirish maqsadida qo’llanilib kelinadi. Boshlang’ich ta’limda ham ularga qog’oz, kley, qaychi, polimerlar, gerbariylar, turli xildagi rangli qumlar bilan ishlash orqali mehnat qilishga o’rgatiladi. Bu esa kelajak avlodga o’z navbatida buyuk haykaltaroshlar, tabiatshunos olimlar, botaniklar, texnologlar kabi kasb egalari yetishib chiqishlari uchun poydevor vazifasini o’taydi.

Texnologiya fani va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang’ich maktabda butun ta’lim-tarbiya tizimi hamda barcha o’quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu oliy ta’lim tizimida o’qitiladigan texnologiya va uni o’qitish metodikasi fani oldida muhim maqsad va vazifalarni qo’yadi. Jumladan, mazkur fanni o’qitishdan asosiy maqsad: talabalarni boshlang’ich sinflarda texnologiya fanining mazmuni va vazifalari, o’qitish usullari, ta’limiy vositalar bilan tanishtirish va ularni darslarda, shuningdek, sinfdan tashqari texnologiya fanini o’qitish jarayonida nazariy hamda amaliy tatbiq etish bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantiradi.

Texnika – moddiy boylik olish hamda odamlar va jamiyatning ehtiyojlarini qondirish maqsadida inson atrofdagi tabiatga ta’sir qilishiga imkon beradigan vositalar va ko’nikmalar majmui. Asosiy vazifasi — inson mehnatini yengillashtirish va mehnat unumdorligini oshirish. U tabiat resurslaridan samarali foydalanishga, Yer qa’rini, Dunyo okeanini, kosmik fazoni o’zlashtirishga imkon beradi.

Texnologiya — termini fanga birinchi marta 1872-yili kiritilgan bo’lib, u grekcha “texnos” — san’at yoki hunar va “logos” — fan so’zlaridan tarkib topgan. Shunday qilib, bu so’zning to’liq ma’nosi “hunar fani” demakdir. Bu fan xom ashyolardan keng miqyosda xalq iste’mol buyumlari va mahsulotlariga hamda ishlab chiqarish vositalariga aylantirish jarayonlarini o’rgatadi.

Yangi qonunchiligimizda tadbirkorlik istagidagi yoshlarimiz uchun davlatimiz tomonidan keng ko’lamli dastur rejalari yo’lga qo’yilgan, ushbu nizomga ko’ra, Qonunning asosiy vazifalari fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va undan manfaatdor bo’lishi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Texnika va texnologiyalar bor ekan, ulardan to’g’ri va samarali foydalana olsakgina tadbirkorlik rivojlanadi. Tadbirkorlik yaxshi rivojlansa davlatimiz boy bo’ladi. Bundan tashqari, texnologiya va tadbirkorlik haqida gap ketar ekan, har bir qiz bor uydan tadbirkorlik bilan shug’ullanish uchun turli xil zamonaviy texnologiyalar joy olgan. Jajji qizlarimiz oila bag’ridanoq hunar o’rganishib o’qishlari davomida bilimlarni mustahkamlab bir ro’zg’orni

obod qiladigan, keng ko'lamli ishlab chiqarishni rivojlantirishda o'z hissalarini qo'shadigan (kashtado'zlar, do'ppido'zlar, zargarlar, hunarmandlar, tikuvchilar, rassomlar, hisobchilar, haykaltaroshlar,) kabi ilmi, bilimli ilg'or kadrlar bo'lib yetishib chiqmoqda.



Hunarmandchilik azaliy odat

Biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanishimiz lozim, harakatda barokat deb bejiz aytilmagan. Ilm-fan va kasb-hunar o'rganishning integratsiyasi natijasini fanni yanada mukammal o'rganish mumkin, ekanligini yoshlarga uqtirish biz pedagoglarning vazifasi hisoblanadi.

References:

1. Kamalova D.I. "Технология интерактивного обучения". Navoiy davlat pedagogika instituti Kengashining 9-sonli yig'ilishi qarori. Uslubiy qo'llanma. Aprel. 2021.
2. Safarov Z.N., Kamalova D.I. "XXI asr texnologiyalari". Navoiy davlat pedagogika instituti Kengashining 3-sonli yig'ilishi qarori. Ilmiy-uslubiy risola. Oktabr. 2021.